

INSTALLYATSIYA SAN'ATI — ZAMONAVIY IJODNING YANGI QIYOFASI

E.Muxamadiyev*SamDAQU dizayn kafedrası professori***R.Jalilov***SamDPI, muhandislik grafikasi va dizayn nazaryasi
mutaxassisligi magistranti***MAQOLA MALUMOTI****MAQOLA TARIXI:***Received: 23.12.2025**Revised: 24.12.2025**Accepted: 25.12.2025***KALIT SO'ZLAR:***installyatsiya san'ati,
zamonaviy dizayn, inson omili,
hissiy idrok, estetik tajriba,
badiiy makon***ANNOTATSIYA:**

Ushbu maqolada installyatsiya zamonaviy badiiy tafakkurning yangi bosqichi sifatida tahlil qilinadi. Mualliflar inson omilini san'at markaziga qo'yadi va installyatsiyaning mohiyatini insoniy his-tuyg'ular, xotiralar va psixologik tajribalar orqali ochib beradi. Ushbu zamonaviy san'at turida tomoshabin nafaqat kuzatuvchi, balki o'zi ham ishtirokchiga aylanadi. Har bir installyatsiya asari – bu oddiy makon emas, balki inson ruhiyatining aks sadosidir. Shu boisdan, installyatsiya san'ati inson va san'at o'rtasidagi ichki suhbatga aylanadi

Har bir davr o'z san'at yo'nalishini yaratadi. Bugungi kunda esa san'at va dizayn sohalarida insonning estetik, ruhiy va intellektual ehtiyojlariga javob beruvchi yangi yo'nalishlar shakllanib bormoqda. Shulardan biri — installyatsiya san'ati bo'lib, u nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki inson va makon o'rtasidagi o'zaro munosabatni aks ettiruvchi zamonaviy san'at shaklidir. Installyatsiya san'ati insonni nafaqat tomoshabin, balki san'at asarining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Agar tasviriy san'atda rassomlar bo'yoq, mo'yqalam, yoki tosh bilan ishlasa, yuzaga kelgan yangi san'at turi-installyatsiya butun bir makonni san'at asariga aylantira olishadi. "Installyatsiya" so'zi ingliz tilidagi "installation"

so'zidan olingan bo'lib, "o'rnatish" yoki "joylashtirish" degan ma'noni anglatadi.⁵⁸ Bu yo'nalish XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan va bugingi kunda eng dolzarb zamonaviy san'at turlaridan biriga aylanib bormoqda.

Installyatsiya san'ati – bu oddiy rasm yoki haykal emas. U atrof-muhit bilan birlashgan, tomoshabinni o'z ichiga oluvchi ijodiy makondir.⁵⁹ San'atkor ma'lum bir joyni tanlab, u yerda turli materiallar yordamida o'z g'oyasini ifodalaydi. Buda ijodkor o'z g'oyalarini turli ko'rinishda, hajimli uy jihozlar, jonli va jonsiz elementlardan shuningdek materiallar - yog'och, metall, plastmassa, shisha, suv, tovush, nur yoki hatto havo oqimi kabilar orqali ifodalashi mumkin. Shunday qilib, installyatsiyada "san'at faqat ko'rish uchun" degan tushuncha o'z ahamiyatini yo'qotadi — tomoshabin uni eshitishi, his qilishi, hatto ichida ishtirok etishi mumkin. Yapon rassomi Yayoi Kusama yaratgan "Infinity Mirror Room" ("Cheksiz ko'zgu xonasi") nomli installyatsiyasi bunga yorqin misoldir. Xona to'liq oynalar bilan qoplangan va minglab chiroqlar bilan yoritilgan. Odam xonaga kirganda, o'zini cheksiz yulduzlar orasida turgandek his qiladi.⁶⁰ Bunday asar tomoshabinga his-tuyg'ularni, xayolot va fikrlarni uyg'otish uchun mo'ljallangan.

Issiq ranglarning tuslari hajimdorlikni, turli qora dog'lar esa harakat yo'nalishini berishda foydalanilgan. Demak tasviriy ifoda va vositalar installyatsiya yaratishda muhim hidoblanadi. Shu bilan birga asarda insonning o'z "men" ini butun olamga singdirishi, egoizmdan xoli bo'lish g'oyasini ilgari suradi.

Installyatsiyaning asosiy xususiyatlari

1. Joy bilan bog'liqlik — installyatsiya aynan o'sha makon uchun yaratiladi. Uni boshqa joyga ko'chirish, asarning ma'nosini o'zgartiradi.

2. Materiallarning xilma-xilligi — rassom istalgan narsadan foydalanadi: metall, plastmassa, suv, chiqindi buyumlar, tovush yoki yorug'lik.

3. Tomoshabinning ishtiroki — odam asarni nafaqat tomosha qiladi, balki uning ichida yuradi, tovushni eshitadi, nur va soya o'yinlarini ko'radi.

4. G'oyaning ustuvorligi — bu san'atda chiroyli shakl emas, balki g'oya va ma'no muhim.

⁵⁸ Oxford Art Online. *Installation Art*. — [Elektron manba]. — URL: <https://www.oxfordartonline.com/> (murojaat sanasi: 08.11.2025).

⁵⁹ Mileaf, J. *Please touch: Dada and surrealist objects after the readymade*. — Dartmouth College Press, 2010.

⁶⁰ Munroe, A. *Yayoi Kusama: Infinity Mirrors*. — Washington D.C.: Hirshhorn Museum and Sculpture Garden, 2012.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham zamonaviy san'atga qiziqish oshib bormoqda. Masalan Toshkentda o'tkaziladigan "Art Week" yoki "Tashkent Modern Art" kabi ko'rgazmalarda yosh ijodkorlar turli installyatsiya asarlarini namoyish etdilar.

Samarqandda Art Station rezidensiyasida Anna Grigoryantsning "idrok ipi" installyatsiyasida inson va tabiat o'rtasidagi nozik, ammo uzilmas rishtaga ishorani anglash mumkin. Shu kabi asarlar orqali ijodkorlar ekologiya, ijtimoiy hayot, an'analar yoki texnologiya mavzularini yoritib kelmoqdalar. Bunda ba'zi asarlar chiqindilardan foydalanib yaratilgan bo'lib, tabiatni asrashga da'vat qiladi. Installyatsiya san'ati insonni nafaqat tomoshabin, balki asarning bir qismiga aylantiradi. U his-tuyg'ularni uyg'otadi, o'ylashga majbur qiladi. Har bir asar muallifning ichki dunyosi, jamiyat haqidagi qarashi va hayot haqidagi savollarini ifodalaydi. Shu sababli, installyatsiya — inson tafakkurini, dunyo qarashini yangicha shakillantirishga shuningdek fikrlashga, izlanishga va his qilishga chorlaydi.

Xulosa qilgan holda shuni aytish mumkinki installyatsiya san'ati bugungi kunda zamonaviy ijodning eng ta'sirli ko'rinishlaridan biridir.

Har bir installyatsiya — bu bir hikoya, bir savol va bir tajriba. Uning asl go'zalligi shundaki, u tomoshabinga javob bermaydi, balki uni fikrlashga undaydi. Shu bois installyatsiya san'ati — inson va makon o'rtasidagi yangi, jonli suhbat, san'at va inson o'rtasidagi ko'prik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Argüello, G. va Caldarola, E. Installation Art. — Journal of Aesthetics and Art Criticism, 2020. — № 78(3). — B. 331–332.
2. Bishop, Claire. Installation Art: A Critical History. — London: Tate Publishing, 2005. — 176 b.
3. Installation Art. — Tate Modern rasmiy veb-sayti: <https://www.tate.org.uk>.
4. Harvey, Heather. A Brief History of Installation Art. — American Academy of the Arts, 2010.
5. Mileaf, J. *Please touch: Dada and surrealist objects after the readymade*. — Dartmouth College Press, 2010.
6. Munroe, A. *Yayoi Kusama: Infinity Mirrors*. — Washington D.C.: Hirshhorn Museum and Sculpture Garden, 2012.